

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17013877>

## YASHIL INVESTISIYALARNING MINTAQA BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH

**Palvaniyazov Anvar Amatovich**

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

*Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD.*

Tel.: +998977893370 email: [anvar.p@urdu.uz](mailto:anvar.p@urdu.uz)

**Annotatsiya:** *Yashil investitsiyalar iqtisodiy o'sish, ekologik muhofaza va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ular qayta tiklanuvchi energiya, ekologik transport va chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu maqolada yashil investitsiyalarning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlari tahlil qilinib, dunyo tajribasi va O'zbekiston sharoitida, xususan, Xorazm viloyati misolida amalga oshirish imkoniyatlari o'rganiladi. Mintaqa geografik joylashuvi va tabiiy resurslarining cheklanganligi tufayli yashil investitsiyalarni jalb qilish va amalga oshirish uchun qulay hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatda quyosh va shamol energetikasidan samarali foydalanish imkoniyati mavjud bo'lib, bu energiya ta'minotini barqarorlashtirish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, suv resurslarining cheklanganligi sababli qishloq xo'jaligida suvni tejovchi texnologiyalar va barqaror ekinlarni rivojlantirish dolzarb masala sanaladi. Asosiy muammolar sifatida yuqori dastlabki xarajatlar, moliyalashtirishning cheklanganligi va huquqiy to'siqlar tahlil qilinadi. Yashil investitsiyalarni keng joriy etish nafaqat ekologik muammolarni kamaytirishga, balki hududning iqtisodiy o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** *yashil investitsiyalar, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, qayta tiklanadigan energiya, ekologik transport, chiqindilarni qayta ishlash, barqaror qishloq xo'jaligi, energiya samaradorligi, yashil texnologiyalar.*

### Kirish

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va uning barqaror rivojlanishga ta'sirini o'rganish ko'pgina tadqiqotchilar uchun muhim va dolzarb mavzulardan biri bo'lib hisoblanmoqda. Yashil iqtisodiyot - bu asosan mamlakat iqtisodiyotini yaxshilash va uni rivojlantirish, ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan mexanizmdir. U iqlimdagi ifloslanishni kamaytirish orqali ekologiyani yaxshilaydi. Bundan tashqari, u bandlik va investitsiya imkoniyatlarini oshirishda, qashshoqlik va kambag'allikni bartaraf etishga olib keladigan moddiy va inson resurslari bilan ta'minlashda, va ijtimoiy sinflar o'rtasidagi tafovut bu esa o'z navbatida resurslarni kelajak avlodlarga ularning kelajagini ta'minlash uchun xizmat qiladigan tarzda saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP ya'ni **United Nations Environment Programme**) yashil iqtisodiyotni inson farovonligini

yaxshilash, shu bilan birga ekologik xavflarni va ekologik resurslar tangisligini sezilarli darajada kamaytiradigan mexanizm deb ta'riflaydi. Oddiy qilib aytganda, bu kamroq uglerod chiqindilarini ishlab chigarishga va barcha ijtimoiy guruhlarni resurslar bilan ta'minlashga urg'u beradigan iqtisodiyot. Resurslar samaradorligi va energiya sarfini oshirish orqali ifloslanish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan.

Ekologiyaning hozirgi tendentsiyasi ushbu jarayonni amalga oshiradigan eng muhim munosabatlarni tahlil qilish nuqtai nazaridan iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shmoqda. Evropa Ittifoqining barcha mamlakatlari 2030 yil barqaror rivojlanishiga erishish to'g'risida bitim imzoladilar. Ushbu kelishuvga binoan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ixtiyoriy ravishda atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga va iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishini uyg'unlashtirishga harakat qilishlari kerak.

Bir nechta tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yashil investitsiyalarning katta qismi qayta tiklanadigan energiya manbalarini tarqatish va joriy etishga sarflangan, bu esa issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekbrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori qabul qilindi. Qaror bilan quyidagi strategik hujjatlar va tizimlar tasdiqlandi:

- strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi;
- sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash bo'yicha konsepsiya;
- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig'imi ko'rsatkichini 2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga qaratilgan 2022–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini tejashning maqsadli parametrlari;
- O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralari muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengash tarkibi yangilandi;
- "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sish bo'yicha donorlarning muvofiqlashtirish guruhi tasdiqlandi.

**Yashil investitsiya** – bu iqtisodiy rivojlanishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan moliyaviy sarmoya bo'lib, atrof-muhitga minimal zarar yetkazgan holda energiya, infratuzilma, sanoat, transport va qishloq xo'jaligi sohalarida barqaror loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Yashil investitsiyalar **global iqlim o'zgarishi muammolarini hal qilish, atmosferaga zararli chiqindilarni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash** maqsadida amalga oshiriladi.<sup>62</sup>

Hozirgi kunda yashil investitsiyalar asosan quyudagilarga yo'naltirilmoqda:

<sup>62</sup> Berle G. The Green Entrepreneur: Business Opportunities that Can Save the Earth and Make You Money.

qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi, ekologik transport, barqaror qishloq xo'jaligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni qayta ishlash.

❖ **Qayta tiklanadigan energiya.** Bu yo'nalish an'anaviy yoqilg'i (neft, gaz, ko'mir) o'rniga ekologik toza va tugamaydigan energiya manbalariga sarmoya kiritishni o'z ichiga oladi.

❖ **Energiya samaradorligi.** Bu yo'nalish mavjud energiya manbalaridan tejamkor foydalanish va texnologik yechimlarni joriy qilishga qaratilgan. Energiya samaradorligi nafaqat ekologik barqarorlikni oshiradi, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali bo'lib, korxonalar va aholining energiya xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

❖ **Ekologik transport.** An'anaviy yoqilg'ida ishlaydigan avtomobillar havoga zararli gazlarni chiqaradi. Yashil investitsiyalar ekologik toza transport vositalarini rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilashga yo'naltirilgan.

❖ **Barqaror qishloq xo'jaligi.** Qishloq xo'jaligi ekotizimga katta ta'sir ko'rsatadi. Yashil investitsiyalar ekologik xavfsiz dehqonchilik va chorvachilikni qo'llab-quvvatlaydi. Bu yo'nalish aholining ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirib, atrof-muhitni asrashga yordam beradi.

❖ **Atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni qayta ishlash.** Bu yo'nalish chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash orqali tabiatni asrashga qaratilgan va ekologik muvozanatni saqlashga va chiqindi chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda yashil investitsiyalar global iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda yashil investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yashil investitsiyalarning iqtisodiy o'sish, ekologik muhofaza va ijtimoiy barqarorlikka ta'siri keng o'rganilgan.

Yashil investitsiyalar atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan va barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladigan sarmoyalar sifatida tavsiflanadi. **Sachs (2015)** yashil iqtisodiyot konsepsiyasini ta'riflab, ularning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilgan. **Markovits (1952)** tomonidan ilgari surilgan investisiya portfeli nazariyasi yashil investitsiyalarni diversifikatsiyalash imkoniyatlarini ham ochib beradi.

Shuningdek, **OECD (2011)** tomonidan tayyorlangan "Towards Green Growth" hisobotida yashil investitsiyalar iqtisodiy o'sishning yangi omili sifatida ta'riflanadi. Tadqiqotga ko'ra, yashil texnologiyalarga investisiya kiritish korxonalarning uzoq muddatli rentabelligini oshiradi.

Iqtisodiy o'sishda yashil investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. **UNEP (2019)** hisobotida yashil investitsiyalar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning eng samarali vositalaridan biri ekani ta'kidlangan.

Shuningdek, **Stern (2006)** tomonidan taqdim etilgan tadqiqotda, agar ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun yetarli investisiya ajratilmasa, kelajakda iqtisodiy yo'qotishlar yanada ortib ketishi mumkinligi qayd etiladi.

Yashil investisiyalar iqlim o'zgarishining oldini olish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. **IPCC (2021)** hisobotida qayd etilishicha, global haroratning 1,5°C dan oshmasligi uchun yashil investisiyalar hajmini sezilarli darajada oshirish zarur. **World Bank (2020)** tomonidan e'lon qilingan hisobotda esa yashil obligatsiyalar va barqaror moliyalashtirish vositalarining ekologik loyihalarni rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqilgan.

Davlat siyosati yashil investisiyalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. **Evropa Ittifoqining Yashil Kelishuvi (2019)** iqtisodiy faoliyatning uglerod neytralligiga o'tishini rag'batlantirishni ko'zda tutadi. "G20 Sustainable Finance Report (2021)"da esa davlatlar yashil investisiyalarni rag'batlantirish uchun maxsus moliyaviy instrumentlardan foydalanishi lozimligi ta'kidlangan.

Yashil investisiyalarning samaradorligi **ESG (Environmental, Social, Governance) Criteria** asosida baholanadi. Ushbu mezonlar bo'yicha investisiyalar faqat iqtisodiy daromad emas, balki ijtimoiy va ekologik jihatlarni ham qamrab olishi kerak. **UNEP FI (United Nations Environment Programme Finance Initiative)** tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, yashil investisiyalarni baholashning xalqaro standartlari ishlab chiqilgan va ularning uzoq muddatli samaradorligi tahlil qilingan.

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, yashil investisiyalar barqaror rivojlanishning ajralmas qismi bo'lib, u iqtisodiy o'sish, ekologik muhofaza va ijtimoiy farovonlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tashkilotlar va olimlar yashil investisiyalarni rag'batlantirish bo'yicha turli strategiyalarni ilgari surmoqda. Kelajakda ushbu investisiyalarning samaradorligini oshirish uchun yanada mukammal baholash usullarini ishlab chiqish zarur.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Yashil investisiyalarning barqaror rivojlanishga ta'sirini baholashni o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash va iqtisodiy-statistik, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Yashil investitsiyalar global miqyosda va O'zbekiston sharoitida barqaror rivojlanish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, Xorazm viloyatida yashil investitsiyalar ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan sezilarli natijalarga erishishda muhim rol o'ynamoqda. Bu bo'limda yashil investitsiyalar natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.



1-rasm. Yashil investitsiyalarning afzalliklari <sup>63</sup>

Oxirgi yillarda Xorazm viloyatida qayta tiklanadigan energiya manbalariga, ekologik transportga va chiqindilarni qayta ishlashga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. Masalan, quyosh va shamol energetikasiga qaratilgan loyihalar tufayli hududda qayta tiklanadigan energiya ulushi sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, suv resurslarining cheklanganligi qishloq xo'jaligida suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda. Suv resurslarini samarali boshqarish uchun tomchilatib sug'orish tizimlari joriy etilgan bo'lsa-da, hali ham bu borada takomillashtirish talab etiladi.

Quyidagi jadval Xorazm viloyatida 2005-2023 yillar davomida iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitga ta'sir o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi:

1-jadval

Iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitga ta'sir o'rtasidagi bog'liqlik <sup>64</sup>

| Yil  | YaIM (mlrd. so'm) | Atmosferaga chiqarilgan zararli moddalar (ming tonna) |
|------|-------------------|-------------------------------------------------------|
| 2005 | 595.2             | 29.7                                                  |
| 2010 | 2058.0            | 58.0                                                  |
| 2015 | 6167.7            | 48.3                                                  |
| 2020 | 21467.9           | 51.4                                                  |
| 2023 | 31963.1           | 86.4                                                  |

Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy o'sish ortib borayotgan bo'lsa-da, ba'zi yillarda ekologik yuk ham oshgan. Xususan, 2021-2023-yillarda atmosferaga chiqarilgan zararli moddalar hajmi sezilarli darajada ortgan. Bu yashil investitsiyalar hajmini yanada oshirish va samaradorlikni oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan yirik yashil loyihalardan biri –

<sup>63</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>64</sup> Muallif ishlanmasi

Urganch shahridagi chiqindilarni qayta ishlash zavodi bo'lib, bu loyiha ekologik yukni kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini bermoqda. Zavod qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash orqali biogaz, RDF yoqilg'i, qurilish materiallari va qog'oz ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Quyidagi sxema zavodning ishlash tamoyilini aks ettiradi:



**2-rasm. Urganch shahridagi chiqindilarni qayta ishlash zavodining ishlash tamoyili <sup>65</sup>**

Bundan tashqari, Xorazm viloyatida elektr energiyasi iste'molini optimallashtirish uchun energiya samaradorligi dasturlari joriy etilmoqda. Misol uchun, LED yoritish tizimlarini kengaytirish, sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish choralari ko'rilmoqda. Bunday choralar iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib, korxonalar va aholining energiya xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Yevropa Taraqqiyot va Tiklanish Banki tomonidan ajratilgan 10 million AQSh dollari miqdoridagi mablag' yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu mablag' korxonalarga energiya samaradorligini oshirish bo'yicha kreditlar ajratishga yo'naltirilgan bo'lib, hozirda 50 dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar orqali yillik elektr energiya sarfi 20 foizga kamayishi kutilmoqda.

Shuningdek, viloyatda ekologik transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ham qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Elektromobillar soni ortib borayotgani va shahar transportida ekologik avtobuslardan foydalanish hajmi kengayib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar hajmini kamaytirishga xizmat qiladi.

Hududda yashil investitsiyalarni jalb qilish borasida hali ham to'siqlar mavjud. Moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi, dastlabki investitsiya xarajatlarining yuqoriligi va huquqiy tartibga solishdagi muammolar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy qiyinchiliklardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli, quyidagi

<sup>65</sup> Muallif ishlanmasi

takliflarni ilgari surish mumkin:

- ❖ Yashil texnologiyalarga kiritilgan investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish.
- ❖ Davlat-xususiy hamkorlik asosida yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.
- ❖ Banklar tomonidan yashil kreditlar ajratish dasturlarini rivojlantirish.
- ❖ Aholi va tadbirkorlarni yashil iqtisodiyotning afzalliklari haqida keng xabardor qilish.

Mintaqada yashil investitsiyalar rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, hali ham hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Eng muhim takliflardan biri – ekologik muhofazani yanada kuchaytirish, texnologik yangilanishlarni jadallashtirish va xalqaro moliyaviy manbalardan samarali foydalanishdir. Shu bilan birga, aholining ekologik savodxonligini oshirish va yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga keng jalb qilish ham dolzarb vazifa sifatida qaralishi lozim.

### **Xulosa va takliflar**

Yashil investitsiyalar barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular nafaqat ekologik muhofazani ta'minlash, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi. Xorazm viloyatida yashil investitsiyalar yo'nalishida amalga oshirilayotgan loyihalar ijobiy natijalar bermoqda, jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini yo'lga qo'yish va suv resurslaridan samarali foydalanish choralari ko'rilmogda. Biroq, bu jarayonda qator muammolar, jumladan, moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi, dastlabki investitsiya xarajatlarining yuqoriligi va huquqiy tartibga solish masalalari dolzarb bo'lib qolmogda. Yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha samaradorlikni oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- ❖ Soliq imtiyozlari va subsidiya dasturlarini kengaytirish – yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun investorlarga rag'batlantiruvchi moliyaviy mexanizmlar taklif etilishi kerak.
- ❖ Davlat-xususiy hamkorlikni kengaytirish – yashil investitsiyalarni jalb qilish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida mustahkam hamkorlik mexanizmlarini yaratish lozim.
- ❖ Bank kreditlarini kengaytirish – yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun tijorat banklari tomonidan maxsus kredit liniyalari va uzoq muddatli past foizli kreditlar taqdim etilishi kerak.
- ❖ Texnologik innovatsiyalarni rag'batlantirish – zamonaviy energiya samarador texnologiyalarini joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot institutlari va tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash maqsadga muvofiq.
- ❖ Aholini ekologik savodxonligini oshirish – yashil iqtisodiyotning afzalliklari bo'yicha ommaviy axborot vositalari, ta'lim va targ'ibot tadbirlarini keng yo'lga qo'yish kerak.

Yashil investitsiyalarni keng joriy etish O'zbekiston iqtisodiyotini yanada barqaror rivojlantirishga, ekologik muammolarni kamaytirishga va mintaqaning

jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, bu yoʻnalishda aniq strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

- 1) World Economic and Social Survey 2011: The Great Green Technological
  - 2) Quinn J. B. Next Big Industry: Environmental Improvement // Harvard Business Review. 1971. Sep-tember/October. P. 120–131.
  - 3) Isaak R. Globalization and Green Entrepreneurship // Greener Management International. 1997. N 18. P. 80–90.
  - 4) Anderson A. R. Cultivating the Garden of Eden: Environmental Entrepreneurship // Journal of Organizational Change Management. 1998. Vol. 11, N 2. P. 135–143.
  - 5) Keogh P., Polonsky M. Environmental Commitment: a Basis for Environmental Entrepreneurship? // Journal of Organizational Change Management. 1998. Vol. 11, N 1. P. 38–49.
  - 6) Pastakia A. Grassroots Ecopreneurs: Change Agents for a Sustainable Society // Journal of Organizational Change Management. 1998. Vol. 11, N 2. P. 157–170.
  - 7) Schaltegger S. A Framework for Ecopreneurship: Leading Bioneers and Environmental Managers to Ecopreneurship // Greener Management International. 2002. N 38. P. 45–58.
  - 8) Beveridge R., Guy S. The Rise of the Eco-Preneur and the Messy World of Environmental Innovation // Local Environment. 2005. Vol. 10, N 6. P. 665–676.
  - 9) Gibbs D. Sustainability Entrepreneurs, Ecopreneurs and the Development of a Sustainable Economy // Greener Management International. 2009. N 55. P. 63–78.
  - 10) Tilley F., Young W. Sustainability Entrepreneurs. Could They be the True Wealth Generators of the Future? // Greener Management International. 2009. N 55. P. 79–92.
  - 11) Dean T. J., McMullen J. S. Toward a Theory of Sustainable Entrepreneurship: Reducing Environmental Degradation Through Entrepreneurial Action // Journal of Business Venturing. 2007. Vol. 22, N 1. P. 50–76.
  - 12) Клапцов В.М. Итоги Саммита «Рио+20». URL:<http://riss.ru/analitics/2568/>
  - 13) Митроанова М.М. Правовые основы экологического предпринимательства в России. URL: <http://www.publishing-vak.ru/file/archive-law-2013-2/7-mitrofanova.pdf>
- Уразова Л.П. Зарубежный опыт развития экологического предпринимательства. URL:<http://pskgu.ru/projects/pgu/storage/wt/>